



XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING QARORI

2024-yil 28-sentabr

VI-68-140-1-0-K/24

Andijon viloyati

Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondiga qo'shish taklifi to'g'risida

Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishga qaratilgan dasturlar va loyihalarni qo'llab-quvvatlashni tizimli tashkil etish, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatining samaradorligini oshirish, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonunning 36-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 124-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI

1. Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondini "Jamoat fondlari to'g'risida"gi Qonunning 36-moddasi talablaridan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondiga qo'shilish taklifi ma'qullansin hamda Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining alohida bo'linmasi deb hisoblansin.

2. Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan qo'shib yuborish jarayonlari qonunchilikka muvofiq amalga oshirilsin.

3. Andijon viloyat Iqtisodiyot va Moliya boshqarmasi jamoat fondining barcha kreditorlari va qarzdorlariga nisbatan barcha majburiyatlari, shu jumladan tomonlar da'volashayotgan majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorislik to'g'risidagi qoidalar

ko'rsatilgan topshirish dalolatnomasi va taqsimlash balansini tayyorlashga amaliy yordam ko'rsatsin.

4. Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondiga ma'lum bo'lgan barcha kreditorlar yozma ravishda xabardor qilinsin va qayta tashkil etish to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon berilsin.

5. Ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyasi Andijon viloyati Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlari hujjatlari va mol-mulkini o'rnatilgan tartibda topshirish choralari ko'rsin.

6. Kengash qarori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatiga yuborilsin.

7. Mazkur qarorni ijrosini nazorat qilish Jamoat komissiyasi raisi M.G'aniyeva zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



ABDURAXMANOV
SHUXRATBEK
KUSHAQBAYEVICH